


X. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi 2023-yilning yanvar-mart oylarida 3 128,0 ming so'mni tashkil etdi va buni hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida 4 069,2 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 130,1 % ni tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Bulung'ur tumanida 2 442,3 ming so'mni (78,1 %), Kattaqo'rg'on tumanida 2 457,0 ming so'mni (78,6 %) Paxtachi tumanida 2 470,3 ming so'mni (79,0 %), Oqdaryo tumanida 2 511,5 ming so'mni (80,3 %) tashkil etib, shahardagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi*
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	2022- yilga nisbatan, % da
--	--------------------------	--------------------------	----------------------------------


Samarqand viloyati	2 594,9	3 127,7	120,5
Samarqand sh.	3 236,1	4 069,2	125,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	2 463,3	2 954,2	120,0

tumanlar:


Oqdaryo	2 207,7	2 511,5	113,8
Bulung‘ur	2 142,4	2 442,3	114,0
Jomboy	2 544,6	2 850,9	112,0
Ishtixon	2 186,5	2 532,5	115,8
Kattaqo‘rg‘on	2 163,0	2 457,0	113,6
Qo‘srbabot	2 116,7	2 552,1	120,6
Narpay	2 452,2	2 769,8	112,9
Payariq	2 095,0	2 560,8	122,2
Pastdarg‘om	2 187,8	2 666,4	121,9
Paxtachi	2 150,2	2 470,3	114,9
Samarqand	2 386,5	2 934,9	123,0
Nurobod	2 493,8	2 760,3	110,7
Urgut	2 312,1	2 619,0	113,2
Toyloq	2 539,0	2 819,0	111,0

2023- yil yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatining shahar va tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2022- yilning mos davriga nisbatan 120,5 foizga oshgani holda, o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori sur’atlari Samarqand shahrida 125,7 foiz, Samarqand tumanida 123,0 foiz, Payariq tumanida 122,2 foiz, Pastdarg‘om tumanida 121,9 foiz, Qo‘srbabot tumanida 120,6 foizga o’sgani kuzatildi.


Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023- yil yanvar-mart holatiga, viloyatga nisbatan, % da)



Sanoatda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 680,3 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 27,2 % ga ko‘paygan.



Qurilish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 201,0 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 39,3 % ga ko‘paygan.

Savdo sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 442,9 ming so‘mni tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 34,1 % ga oshdi.



Tashish va saqlashda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 933,3 ming so‘mni tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 27,1 % ga oshdi.

Axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 6 448,3 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 49,6 % ga oshdi.





Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 7 913,5 ming so‘mni tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 46,6 % ga oshdi.

Ta’lim sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 782,4 ming so‘mni tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga oshdi.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 722,1 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 714,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 28,8 % ga oshdi.



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (yanvar-mart, ming so‘mda)

